

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**MARHABO UMURZAQOVA**

**O‘ZBEK TILIDA SEGMENT  
QURILMALAR**

**“Nodirabegim” nashriyoti  
Toshkent – 2020**

**KBK: 81.20'zb-3**  
**U 52**  
**UO'K: 811.512.133'372**

**ISBN 978-9943-6495-5-2**

Umurzaqova, Marhabo.

O'zbek tilida segment qurilmalar [Matn] : monografiya / Marhabo Umurzaqova. - Toshkent: Nodirabegim, 2020. – 100 b.

Monografiyada o'zbek tilshunosligida segment qurilmalarning o'rganilishi, ularning semantik-struktur xususiyatlari, yondosh hodisalardan farqi, atov gap va tasavvur nomlarining segmentatsiyaga munosabati, bunday qurilmalarning matn emotsionalligini ta'minlovchi vosita ekanligi, so'zlovchining pragmatik maqsadi hamda ularda aktual bo'linish muammosi kabi masalalarga e'tibor qaratilgan.

Monografiya tilshunos olimlar, tilshunoslik ilmi bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar, magistrantlar va talabalar uchun mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir:**

N.Mahmudov – *filologiya fanlari doktori, professor.*

**Taqrizchilar:**

D.Lutfullayeva – *filologiya fanlari doktori, professor.*

D.Xudoyberganova – *filologiya fanlari doktori, yetakchi ilmiy xodim.*

*Monografiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*  
*(9-sonli majlis qarori, 11- aprel 2020 -yil)*

© **Marhabo Umurzaqova.**  
© **“Nodirabegim” nashriyoti, 2020.**

**SO'ZBOSHI**

Jahon tilshunosligida so'nggi yillarda lingvopragmatika sohasida qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Til birliklariga nutq jarayonida nutq egalarining munosabati, voqelik, obyektiv olamni aks ettirishda til birliklarining o'rni masalasini yoritish muhim vazifalardan sanaladi. Nutq jarayonida adresantning adresatga munosabati, berilayotgan axborotning muhimligiga ko'ra kommunikativ maqsad bilan gapni qayta tuzish natijasida shakllanadigan sintaktik qurilmalarni o'rganish, ularda so'zlovchi pragmatik intensiyasi, baho munosabatining aks etishi, bunday sintaktik qurilmalarning badiiy matndagi o'rni va emotsionallikni ta'minlashdagi ahamiyati masalasini yoritish sohaning asosiy muammolaridan biridir.

Dunyo tilshunosligida ekspressiv qurilmalar, jumladan, segment qurilma shakllaridan biri tasavvur nomlari, mavzu ifodalovchi gaplar haqida tadqiqotlar olib borilgan. Segment qurilmalarning lingvistik tabiatini aniqlash, matn hosil qilishdagi rolini belgilash, sintaktik-semantik xususiyatlarini yoritish, o'zbek tili materiallari asosida ularda aktual bo'linishning o'ziga xosligi, kontekst bilan bog'liqligi, yondosh hodisalardan farqini ko'rsatib berish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, ayniqsa, o'zbek tilining Davlat tili sifatidagi maqomini mustahkamlash, uning mavqeini ko'tarish bo'yicha qabul qilingan qator qonun va qarorlar tilshunoslik sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarining yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'ldi. «Yurtimizdagi islohot va o'zgarishlar jarayoni ortga qaytmaydigan tus olib, hal qiluvchi pallaga kirayotgan»ligi<sup>1</sup> hali tilshunoslar oldida ham qator vazifalar borligini ko'rsatadi. O'zbek tilida segment qurilmalarni nazariy jihatdan o'rganish, o'zbek tili materiallari asosida ularning lingvopragmatik xususiyatlarini ko'rsatib berish amaliy yechimini kutayotgan muammolardan hisoblanadi.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси.

Segment qurilmalar Yevropa tilshunosligi, xususan, rus tilshunosligida keng tadqiq qilingan. O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab dastlab og'zaki nutqda keng qo'llanilgan, keyinchalik yozma nutqqa ko'chgan o'ziga xos qurilmalar haqidagi qarashlar yoritila boshlangan. Yevropa tilshunosligining yirik vakillari Sh.Balli, A.M.Peshkovskiy, A.S.Popov, G.Akimova, N.S.Valgina kabi olimlar segment qurilmalar haqida tadqiqotlar olib borishgan. Segment qurilmalar haqidagi qarashlar dastlab Sh.Balli ishlarida kuzatilsa<sup>2</sup>, uning o'ziga xos xususiyatlari, boshqa hodisalardan farqi haqida rus tilshunosi A.M.Peshkovskiy<sup>3</sup>, sintaktik-semantik xoslik haqida A.S.Popov so'z yuritgan<sup>4</sup>.

O'zbek tilshunosligida segment qurilmalar haqidagi ilk qarashlar o'zbek tilidagi atov gaplarni tadqiq qilgan A.G'ofurov dissertatsiyasida uchraydi<sup>5</sup>. Olim hodisani aynan shu nom bilan atamasa-da, ushbu qurilmaga mos keladigan birliklarning uslubiy xususiyatlari haqida so'z yuritgan. Segment qurilmalarning tabiati, yuzaga kelishi, ko'rinishlari haqida A.Ahmedovning maqolasida ma'lumotlar keltirilgan<sup>6</sup>.

Monografiyada o'zbek tilida segment qurilmalarning semantik-struktur, lingvopragmatik xususiyatlari yoritilgan. Unda o'zbek tilidagi matnlarda segment birliklar, xususan, A.Muxtor, E.Vohidov, A.Oripov, R.Parfi, U.Azim, H.Xudoyberdiyeva, E.A'zam, M.Yusuf, Y.Eshbek, S.Sayyid, Iqbol Mirzo, U.Hamdani kabi shoir hamda yozuvchilarning badiiy asarlaridan olingan materiallar tahlilga tortilgan.

<sup>2</sup> Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М.: И-Л. Издательство Иностранной литературы, 1955.

<sup>3</sup> Пешковский А.М. Русский язык в научном освещении. – М., 1956.

<sup>4</sup> Попов А.С. Развитие грамматики и лексики современного русского языка. – М.: Наука, 1964.

<sup>5</sup> Гофуров.Х. Ҳозирги замон ўзбек тилида номинатив гаплар: Филол. фан. номз. ... дисс. Тошкент, 1962.

<sup>6</sup> Ахмедов А. Ўзбек тилининг экспрессив синтаксисига хос бир конструкция хақида Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1975. 3-сон. – Б. 34–39.

## I. O'ZBEK TILI SEGMENT QURILMALARINING SEMANTIK-STRUKTUR TAVSIFI VA O'RGANILISH MUAMMOSI

### TILSHUNOSLIKDA SEGMENTATSIYA HODISASINING O'RGANILISHI

Inson o'zining ruhiyati, kayfiyati, o'zgalarga va voqelikka munosabatini bevosita til, nutq orqali ifoda etadi. U ifodaning aniq, tushunarli, ta'sirchan bo'lishi uchun harakat qiladi. Shu ehtiyoj tufayli nutq jarayonida tildan foydalanishning turli usullari kashf etilgan. So'zlovchi axborotning to'g'ri va to'liq yetib borishi uchun nutq jarayonida nutq parchalarini bir-biri bilan biriktirishning turli yo'llarini sinab ko'radi. Ana shunday usullardan biri nutqni qismlarga, bo'laklarga bo'lib uzatish bo'lib, tilshunoslikda bu usul segmentatsiya degan hodisani yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.

XX asrning 60-yillaridan boshlab tilshunoslikda «ekspressiv sintaksis» termini paydo bo'ldi. Ekspressiv qurilmalarning asosiy vazifasi faqat axborot ifodalabgina qolmay, adresatning e'tiborini ma'lum voqea-hodisa, predmetga tortish, diqqatini o'sha narsada ushlab turish, uni boshqalardan ajratib, ta'kidlab ko'rsatishda hamdir. Ekspressiv qurilmalardan biri segment qurilmalar bo'lib, u ikki – segment va asosiy qismdan iborat bo'ladi. Segment termini inglizcha so'z bo'lib, «qism, bo'lak» ma'nolarini bildiradi. Bir gap tarkibida ifodalash mumkin bo'lgan axborotni bo'laklar – segmentlarga bo'lib berish orqali ekspressivlikning ifodalanishi tilshunoslikda «segmentatsiya» termini bilan atalayotgan tushunchaning paydo bo'lishiga olib keldi. Tilshunoslikda segmentatsiya dastlab fikr ifodalashning bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'lgan. Sh.Balli tilda fikr ifodalashning segmentatsiyadan boshqa yana ikki turini farqlaydi: сочинение (bog'langan), связанный (ega – kesim munosabatiga teng keladigan «Bu qush uchadi» tipidagi gaplar). «Segmentlangan gaplar deb ikki bog'langan qismdan tashkil topgan, ammo bu bog'lanish to'liq

bo'lmay ikki qismni ajratish mumkin bo'lgan gaplarga aytiladi. Birinchi qism (A) fikrning temasi funksiyasini bajaruvchi, ikkinchisi (Z) remasi (povod) funksiyasini bajaruvchi hisoblanadi»<sup>7</sup>. Sh.Balli birinchi gapni eksplitsit holda takrorlash natijasida segmentlangan gaplar yuzaga kelishi bo'lishi mumkin degan fikrni bildiradi. *Yomg'ir yog'ayapti. Biz chiqmaymiz.* Bu hol suhbatdoshni ikkita deb tasavvur qilganda yanada oydinlashishini ta'kidlaydi. *A: – Yomg'ir yog'ayapti? B: – Yomg'ir yog'ayapti? (Sizning aytishingizcha, yomg'ir yog'ayapti?) Biz chiqmaymiz.* Bu holat bizga o'sha holatni, ya'ni B suhbatdosh birinchi gapni takrorlash jarayonida aytmoqchi bo'lgan gapni eslab olish imkonini berganligini tasavvur qilishga yordam beradi<sup>8</sup>. Olim segmentlangan gapni shakl jihatidan bog'langan (связанной) gapga qarama-qarshi qo'yadi. 1. *Bu xat, men uni olmadim.* 2. *Bu xatni men umuman olmadim.* Keltirilgan ikki gapda ham bir xil axborot ifodalangan bo'lib, bir-biridan bajarayotgan vazifasi hamda tuzilishi jihatidan farq qiladi. Segment qurilmalar muloqot jarayonida mantiqiy urg'u olgan bo'lakni ajratib ko'rsatuvchi vositalardir. Shunga ko'ra Sh.Balli segment qurilmalarni ikki – repriza va antisipatsiyaga ajratadi<sup>9</sup>.

Repriza asosiy gap tarkibida korrelyati olmosh bo'lgan segment qurilmadir. Masalan, *Shabnam, bu – tunda oy to'kkan achchiq yosh, Hovur, bu – quyoshning ko'ksida alam* (Iqbol Mirzo).

Antisipatsiyada esa avval olmosh kelib, uning nimaga ishora qilayotgani uni izohlab kelayotgan keyingi gap tarkibidagi so'zdan anglashiladi. Reprizadan farqli ravishda uning korrelyati sifatida substantiv xarakterdagi so'z keladi. Ba'zan korrelyat ifodalanmasligi ham mumkin. *Ana u! Ustidagi yaktakni yechib duch kelgan yoqqa uloqtirdi-yu, qorong'ulik qa'riga o'zini urdi* (L.Bo'rixon).

Segment qurilmalarning hozirgi zamon rus adabiy tilidagi taraqqiyotini tadqiq qilgan G.N.Akimova ekspressiv sintaksis

<sup>7</sup> Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М.: И-Л. Издательство Иностранной литературы, 1955. – С.70.

<sup>8</sup> Балли Ш. Кўрсатилган асар. – С. 71.

<sup>9</sup> Балли Ш. Кўрсатилган асар. – С. 187.

vositalarining yozma va adabiy tilning og'zaki shakli o'rtasidagi munosabatini bir necha bosqich asosida yoritadi. Tadqiqotchi ba'zi bir sintaktik hodisalarning asosida og'zaki nutqqa xos elementlar yotishini aytadi<sup>10</sup>. Uningcha, ekspressiv sintaksisga xos umumiy jihatlardan biri bo'laklanishning yuqori darajadali, matnning segmentlanganligi, ya'ni uning og'zaki nutq bilan bog'liqligidir<sup>11</sup>.

O'zbek tilshunosligida segment qurilmalarga shaklan o'xshash bo'lgan atov (nominativ) gaplarni tadqiq qilgan H.G'ofurov antisipatsiyaga munosabat bildirmagan. Tadqiqotchi rus tilshunosligida antisipatsiya termini bilan atalgan bunday birliklarni bosh bo'lagi olmosh bilan ifodalangan nominativ gaplar sifatida baholaydi. «Nominativ gapning bosh bo'lagi ba'zan kishilik olmoshi bilan ham ifodalanishi mumkin. Bunday chog'da bosh bo'lak odatda «ana» yoki «mana» degan ko'rsatish yuklamalari bilan birgalikda keladi va shaxsning mavjudligini ko'rsatadi. Masalan: *Mana ular. Ko'pdan beri bir-birlari bilan do'stlashishni orzu qilib kelar edilar*»<sup>12</sup>. I.Rasulov nominativ gapning substantiv xarakterda bo'lishi uning leksik-morfologik tabiatini belgilashini, uning bosh bo'lagi turdosh, atoqli otlar, otlashgan so'zlar va olmosh bilan ifodalanishini, olmosh bilan ifodalanganda albatta *ana, mana* so'zlarini olishini ta'kidlaydi<sup>13</sup>.

Rus tilshunosligida segment qurilmalar dastlab A.M.Peshkovskiy tomonidan tadqiq etilgan. Olim na gap bo'lib shakllangan, na uning bo'lagi sanalgan so'z va so'z birikmalari haqida gapirib, bosh kelishikdagi so'zlar anglatgan predmetlarni, tushunchalarni ajratadi. Og'zaki nutqqa xos bo'lgan, keyingi gapda *u* ko'rsatish olmoshi bilan aloqalangan bosh kelishikdagi so'zlarni ham shunday sintaktik qurilmalar sirasiga kiritish mumkinligini ta'kidlaydi. Uningcha,

<sup>10</sup> Акимова Г.Н. Наблюдения над сегментированными конструкциями в современном русском языке // Синтаксис и стилистика. – М.: Наука, 1976. – С. 237.

<sup>11</sup> Акимова Г.Н. Кўрсатилган манба. – С.238.

<sup>12</sup> Гофуров Х. Ҳозирги замон ўзбек тилида номинатив гаплар: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1962/ – Б.8.

<sup>13</sup> Расулов И. Ҳозирги ўзбек адабий тилида бир составли гаплар. – Тошкент: Фан, 1974. – Б.197.

so'zlovchi bosh kelishikdagi so'zlarni aytganda gap tuzishni mo'ljallagan, bu so'z unga ega yoki eganing alomati sifatida kerak bo'lishini biladi, mazkur so'z keyingi o'rinda olmosh bilan almashadi. A.M.Peshkovskiy tinglovchining diqqatini qaratishga xizmat qiladigan bunday qurilmalar ma'ruza o'qiydigan o'qituvchilar nutqida faol qo'llanilishini aytib, uni «лекторский именной» deb ataydi, bunday qurilmalar so'zlovchining aynan shu tasavvur nomini ajratib ko'rsatish istagining natijasi sifatida paydo bo'lishini ta'kidlaydi. Fikr ikki usulda yetkaziladi: avval ajratilgan predmet nomi keltiriladi, tinglovchiga hozir shu predmet haqida nimadir aytilishi ma'lum bo'ladi, hozircha uning diqqatini qaratmoq lozim, keyin esa fikr aytiladi. Ma'ruzachi nutqida tinglovchiga yengillik tug'diriladi, og'zaki nutqda esa so'zlovchi o'ziga yengillik tug'diradi<sup>14</sup>. A.M.Peshkovskiy badiiy adabiyot tilida uchraydigan, og'zaki nutqqa xos bo'lmay, poeziya va prozada ishlatiladigan kitobiy uslubga xos bo'lgan qurilmalarni ham keltiradi<sup>15</sup>.

Umuman, segment qurilmalarga xos bo'lgan xususiyat uning keyingi gapda korrelyatga ega bo'lishi, korrelyat sifatida esa, asosan, olmosh turkumiga xos so'zlar kelishidir. Atov gaplar segment qurilmalarga shakl jihatidan o'xshash bo'lib, ba'zan ular bir-biridan farq qilmaydigan holatlar ham bor. Zamon va makon ifodalovchi otlar bilan ifodalangan atov gaplarni segment qurilmalardan farqlash juda qiyinligini A.S.Popov misollar asosida dalillaydi, ba'zan bir gapning o'zi ham atov gapga, ham segment qurilmalarning bir turi bo'lgan tasavvur nomiga misol bo'la olishini, bunday hollarda farqlashda intonatsiyaning ahamiyati katta ekanligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, predmet haqida umumiy ma'lumot berayotgan gaplarni atov gap, olmosh korrelyat sifatida kelganlarini esa tasavvur nomlari sifatida olish mumkin<sup>16</sup>.

<sup>14</sup> Пешковский А.М. Русский язык в научном освещении. – М., 1956. – С. 405.

<sup>15</sup> Пешковский А.М. Курсатилган манба. – С. 118.

<sup>16</sup> Попов А.С. Развитие грамматики и лексики современного русского языка. – М.: Наука. 1964. – С. 261-262.

Segment qurilmalar u bilan mos keladigan gap bilan qiyoslanganda segmentatsiya fikrning mantiqan ajratilgan bo'lagining son jihatidan ko'payishiga xizmat qilishini ko'rish mumkin: bitta o'rniga ikkita mantiqiy-mazmuniy markaz tashkil qilinadi<sup>17</sup>. Segment bo'lak birinchi mantiqiy-mazmuniy markaz bo'lsa, uning korrelyati ikkinchi markazdir. Masalan:

*Tug'illish – shiddat-la tortilgan kamon,*

*O'lim, bu – nishonga borib tekkan o'q* (A.Oripov). Keltirilgan misolda *o'lim* segment bo'lagi birinchi mantiqiy-mazmuniy markazni tashkil etgan bo'lsa, uning korrelyati hisoblangan *bu* ko'rsatish olmoshi ikkinchi mantiqiy-mazmuniy markazni tashkil etgan.

Rus tilshunosligida segment qurilmalarni tadqiq qilgan T.R.Konovalova segmentni gap ham emas, gap bo'lagi ham emas deb hisoblaydi. Tadqiqotchi bu sintaktik qurilmada o'ziga xoslikka ko'proq e'tibor berish kerakligini, segmentning darajasi har xil bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi hamda gap tarkibida bo'lmagan segmentlarni «mustaqil», gap tarkibida bo'lganlarni esa «nomustaqil» deb ataydi. Tadqiqotchi «mustaqil» segmentni o'ziga xos kommunikativ birlik sifatida baholab, shartli ravishda nopredikativ fikr ifodalovchi deb ataydi<sup>18</sup>.

Segment birliklar gapmi yoki gap emasmi degan savol tilshunoslar orasida keng munozaraga sabab bo'lgan. Alohida birlik sifatida gapning oldingi qismiga chiqarilganda, aniqlovchilar bilan kengayib kelgan segmentlar shakl va mazmun jihatidan gapga o'xshab ketadi. U nisbatan kengroq axborot ifodalaydi, lekin undagi fikrning tugallanmaganligi, predikativlikning yo'qligi gap bo'la olmasligining asosiy sababidir. Segment sifatida ajratilgan qism yoyiq holda kelganda ham, yig'iq holda kelganda ham mazmunan unga tobe bo'lgan keyingi qismni talab qilib turadi, uning mazmuni unga tobe bo'lgan bazaviy qismda ifodalangan mazmun bilan to'ldiriladi. Bazaviy qismda olmoshning kelishi, uning

<sup>17</sup> Конавалова Т.Р. Сегментированные конструкции в современной русской речи: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Саратов. 1973. – С.8.

<sup>18</sup> Конавалова Т.Р. Курсатилган авторефат. – С.19.

mazmunan bo'sh so'z ekanligi oldingi qism bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Segment sifatida ajratilgan qism va korrelyat grammatik jihatdan har doim ham mos kelavermaydi. Segment bosh kelishikda bo'lgani uchun uning qaysi gap bo'lagini segmentlash asosida yuzaga kelganligi bazaviy qismdagi olmoshning vazifasi bilan aniqlanadi.

Ingliz tilidagi segment qurilmalarning turlari, uning o'ziga xos xususiyatlari rus tadqiqotchisi T.S.Safronova tomonidan o'rganilgan. U o'z tadqiqotida segment qurilmalarning to'rt ko'rinishini tahlil qiladi: 1) subyekt segment sifatida kelgan segment qurilmalar; 2) obyekt segment sifatida kelgan segment qurilmalar; 3) oldin olmosh, keyin subyekt kelgan segment qurilmalar; 4) oldin olmosh, keyin obyekt kelgan segment qurilmalar<sup>19</sup>. Tadqiqotchi segmentlanishga asosan gapning bosh bo'lagi ega va ikkinchi darajali bo'lagi to'ldiruvchi uchrashini, chunki bu ikki gap bo'lagi vazifasida substantiv xarakterdagi so'z kelishini ta'kidlaydi. Tadqiqotchi o'z ishida ingliz tili materiallaridan olingan segment qurilmalarni tahlil qilish orqali ulardagi tema-rematik bo'linish, uning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib bergan.

Tadqiqotchi T.A.Javoronkova nomzodlik dissertatsiyasida olmosh bilan aloqalangan segment qurilmalar, ularning turlari, o'ziga xos jihatlari haqida so'z yuritadi. Tadqiqotchining fikricha, segmentatsiya sintaktik bo'laklanishning bir turi sifatida ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi: repriza va antisipatsiya.

Antisipatsiya ko'rinishidagi qurilmalar repriza qurilmalarning shunchaki aksi bo'lmay, o'ziga xos murakkab qurilmalardir. Reprizada avval obrazning lisoniy identifikatsiyasi namoyon bo'ladi, shakl mazmundan orqada qoladi, antisipatsiyada esa teskarisi, mazmun shakldan keyinda qoladi. *Oh, baxtsizlik! U baxtning tayanchidir. Oh, baxtiyorlik! Unda baxtsizlik.* (Lao Tzi)

*Qor yog'adi... Gullaydi bodom*

*Yillar o'tar – o'lim siltaydi.*

<sup>19</sup> Сафронова Т.Н. Сегментированные конструкции в современном английском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Л., 1975. – С.9.

*Faqat o'sha... beradi orom...*

*Faqat o'sha... sizga eltadi* (U.Hamdani).

Reprizada korrelyat har doim ham olmoshdan iborat bo'lavermaydi, boshqa so'z turkumidagi so'zlar ham bo'lishi mumkin, antisipatsiyada esa korrelyat sifatida olmosh va olmosh xarakteridagi so'zlar keladi. Repriza qurilmalarda segment va olmosh uyg'un bo'lmasligi mumkin. Masalan, segment sifatida ajratilgan so'z birlikda, olmosh esa ko'plikda, segment doim bosh kelishikda, korrelyat esa boshqa kelishiklarda bo'lishi mumkin. Antisipatsiyada esa bu holat kuzatilmaydi, segment va korrelyat doim uyg'un holda qo'llaniladi<sup>20</sup>. Har doim ham repriza va antisipatsiya ko'rinishidagi qurilmalar bir-birining o'rnini bosa olmaydi. Antisipatsiya matn qismlarini bog'lovchi vosita sifatida kelganda uni repriza qurilma sifatida qayta tuzib bo'lmaydi. Tadqiqotchi repriza qurilmali gaplarni ba'zi mualliflar gap emas deb, ba'zi mualliflar esa kontekst bilan bog'langan atov gapning bir ko'rinishi sifatida baholashlarini ta'kidlaydi hamda segment sifatida ajratilgan bo'lak o'z ichiga gap, sifatdosh o'ram, ergash gapni qamrab olishi mumkinligini ko'rsatadi<sup>21</sup>.

Avval substantiv xarakterdagi so'z bilan ifodalangan segment bo'lak, keyin uning korrelyati sifatida olmosh kelgan qurilmalar avval olmosh, keyin ot kelgan qurilmalarga nisbatan mustaqil sanaladi. Shuning uchun antisipatsiya ko'rinishidagi qurilmalarga ergashgan qo'shma gaplarni kiritish mumkin. Bir havola bo'lakli ergashgan qo'shma gaplarda bosh gap tarkibidagi havola bo'lak segment qurilmalar tarkibidagi olmosh kabi tinglovchining diqqatini ma'lum bir o'ringa qaratish, uni boshqalaridan ajratib ko'rsatish vazifasini bajaradi. Bu holatni ayniqsa bir havola bo'lakli kesim ergash gapli qo'shma gaplarda ko'rishimiz mumkin. «Endi sizlarga muborak topshiriq shuki, har biringiz alohida-alohida yo'lga o'tlanasiz. Keltirilgan misolda bosh gap (*Endi sizlarga muborak topshiriq shuki*) ergash gapdan (*har biringiz*

<sup>20</sup> Жаворонкова Т.А. Сегментированные конструкции с пропозитивным местоимением в естественном тексте: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Л., 1975. – С.6-9.

<sup>21</sup> Жаворонкова Т.А. Курсытланган автореферат. – С.6-7.

## MUNDARIJA

SO‘ZBOSHI.....	3
<b>I. O‘ZBEK TILI SEGMENT QURILMALARINING SEMANTIK-STRUKTUR TAVSIFI VA O‘RGANILISH MUAMMOSI.....</b>	<b>5</b>
Tilshunoslikda segmentatsiya hodisasining o‘rganilishi.....	5
Segment qurilmalarning semantik-struktur tuzilishi.....	15
Segmentatsiyaning yondosh hodisalardan farqi.....	25
Atov gaplar segment qurilma sifatida.....	39
Tasavvur nomlarining segmentlash asosida shakllanishi.....	49
<b>II SEGMENT QURILMALARNING PRAGMATIC XUSUSIYATLARI.....</b>	<b>56</b>
Segment qurilmalar matn emotsionalligini ta‘minlovchi vosita sifatida.....	56
Segmentli matnlarda so‘zlovchi pragmatik intension va lingvostilistik xoslanish.....	68
Segmentli matnlarda aktual bo‘linish muammosi.....	77
<b>UMUMIY XULOSALAR.....</b>	<b>87</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....</b>	<b>88</b>

MARHABO UMURZAQOVA

# O‘ZBEK TILIDA SEGMENT QURILMALAR

monografiya

“Nodirabegim” nashriyoti

Nashriyot litsenziyasi AI № 313. 24.11.2017 y.

Bosishga ruxsat etildi: 11.06.2020.

“Times New Roman” garniturasida. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/16

Nashriyot bosma tabog‘i 6,2. Adadi 200 nusxa.

100129, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani,

Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

OOO “AKTIV PRINT” bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Chilonzor 25, Lutfiy 1A.